

JAMIYATDA HUQUQIY ONG VA MADANIYATNI YUKSALTIRISHDA IIO PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING ADLIYA ORGANLARI BILAN HAMKORLIGI

Xasanov Ulug'bek Muzaffar o'g'li

IIV Akademiyasi 3-o'quv kursi,

318 guruh kursanti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada huquqbuzarliklarning oldini olish uning kelib chiqish sabab va sharoitlarini bartaraf etish borasida Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining adliya organlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi belgilangan chora tadbirlar, ularning tushunchasi va ahamiyati, shuningdek samaradorligini ta'minlashga oid taklif va xulosalar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *huquqbuzarlik, jinoyatchilik, jazo tizmi, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, hamkorlikdagi chora tadbirlar, jazoga hukm qilingan shaxslar, voyaga yetmagan shaxs, qonunchilik normasi.*

Barchaga ma'lumki, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, aholining huquqiy madaniyati va ongini oshirish, shaxsning hayoti, sog'lig'i, sha'ni, qadr-qimmati va mol-mulkini turli tajovuzlardan himoya qilishda profilaktika inspektorlarining o'rni muhim ahamiyatga egadir. Fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini, ularning xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlarining quyi tizimi hisoblangan, ya'ni ichki ishlar organlarining tayanch punktlarida xizmat faoliyatini olib boruvchi profilaktika inspektorlarining xalqqa yaqinligi va ular doimiy ravishda odamlar orasida bo'lishi huquqbuzarliklarning oldini olishda hamda ularning huquqiy ongi va madaniyatini kuchaytirishda o'z samarasini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 3 yanvardagi PQ-1-sonli Qaroriga ko'ra, har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish ustuvor vazifa sifatida belgilanib, mahalla huquq-tartibot maskanlarida profilaktika bosh inspektori, profilaktika katta inspektori, profilaktika inspektori, profilaktika kichik inspektori lavozimlaridagi xodimlar xizmat ko'satishi belgilandi. Bundan tashqari, hududda xizmat qilish uchun birlashtirilgan yoki tashkiliy-shtat tuzilmasi asosida kiritilgan tuman (shahar) ichki ishlar organining xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, probatsiya bo'linmasi inspektori, tezkor vakil, patrul-post xizmati xodimlari, yo'l harakati xavfsizligi inspektori ham faoliyat yuritishi, hududda jamoat tartibini saqlash va huquqbuzarliklar profilaktikasiga Milliy gvardiya qo'riqlash bo'linmasining naryadi, boshqa

vakolatli davlat organlarining xodimlari va jamoat tuzilmalarining vakillari ko'maklashishi lozimligi belgilab qo'yildi.

Umuman olganda, profilaktika inspektori fuqarolarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishda Adliya organlari bilan xamkorlik olib borishi muximdir. Birlamchi tushuncha sifatida profilaktika inspektorining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish faoliyati namoyon bo'ladi. Mazkur faoliyat deganda huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir.

Isloxotlar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish soxasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish chora- tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 26-martda PF-6196-sonli Prezident Farmoni qabul qilinib Farmonning 2-bandiga muvofiq Ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilish belgilandi. "Mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanadi, mahalla huquq-tartibot maskani negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etiladi, mahalla huquq-tartibot maskani tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklansin" deb belgilandi va bundan buyon maxalla xuquq-tartibot maskanlari xuquqbuzarliklar profilaktiasi faoliyatida katta axamiyatga ega xisoblanadi. Profilaktika inspektorining fuqarolar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda Adliya organlari bilan xamkorligi bo'yicha bo'yicha faoliyatining mazmunini tushunish maqsadida huquqiy ong va madaniyat tushunchalariga ilmiy-nazariy tarafdin nazar solish lozimdir.

Xuquqiy ong deganda kishilarning xuquq xaqida tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek xuquq borasidagi tasavvurlarning inson ongida aks etish tushuniladi. Xuquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Xayotning soxalari g'oyat xilma-xil bo'lib, ularning xar biri jamiyat ijtimoiy ongida diniy, siyosiy, xuquqiy, axloqiy va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi. Inson xayotiga tajovuz qilish, unga tegishli mulkka taxdid qilish, uni nobud etish yoki o'g'irlash axloq nuqtayi nazaridan qoralanadigan salbiy xolatlaridir.

Bu axloqiy talablar ijtimoiy ongda namoyon bo'ladi, aks etadi. Xuquqiy ongga kelganda, uning tartibga soluvchi ta'sir kuchi boshqa shaklda namoyon bo'ladi. Gap shundaki xar bir xuquqiy ko'rsatma xuquqiy ong orqali o'tganidan so'nggina, aniq fe'l-atvorda yoki qilmishda amalga oshadi. Xuquqiy ong, mohiyati bo'yicha o'ziga xos sinov va tajriba maydonini tashkil qiladi, unda xuquqiy axborotni o'zlashtirish va qabul qilib olish bilan bog'liq murakkab jarayon ketadi. Xuquqiy ongning bilish vazifasi, xuquqiy talabga nisbatan, o'zining fe'l - atvor yo'lini ishlab chiqishdagi baxolash fikri yoki muloxazasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, miya ichki fikrlash funksiyasining butun jarayoni insonning o'zini-o'zi nazorat qilishiga, uning fe'l-atvor xususiyatini aniqlashga yordam beradi. Xuquqiy talabni tushunishda, xuquqiy bilim darajasi, umumiy va xuquqiy madaniyatining saviyasi shubxasiz katta ahamiyatga egadir. Xuquqiy ong ijtimoiy ongning shunday sohasi, u tushuncha, taassurot, baxolash, fikr yuritish kabi jarayonlarni o'z ichiga oluvchi xuquqiy me'yorlarni shakllantirish bilan birga xuquqiy tizimning xilma-xil qismlari: sud'ya, xakamlar ishi, jazo berish tizimi, ichki ishlar organlari xizmati, notarial idoralar, prokuratura va boshqa ko'p soxalar borasida tushunchalarni yuzaga keltiradi.

Murakkab ruhiy hodisa bo'lgan huquqiy ong ikki qismga: huquqiy mafkura va huquqiy ruhiyatga ajratiladi. Huquqiy mafkura - har xil huquqiy hodisalar haqidagi nuqtai nazar, tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iborat. Huquqiy ongning huquqiy mafkura qismida aks etgan huquqiy hodisalar huquqqa bag'ishlangan maxsus nazariy izlanishlarda o'z rivojini topib, ilmiy darajada anglab yetiladi. Bunday ilmiy asarlarning mazmuni odamlar ma'naviy mulkiga aylanib, ularning ongiga aniq huquqiy bilimlarni, mulohazalarni, e'tiqod va kayfiyatni olib kiradi. Insonning ongidagi huquqni anglash jarayoni, yuqorida zikr etganimizdek yoki shunga yaqinroq tarzda kechadi. Inson huquqiy ongi orqali huquqni anglash bilan uni qo'llash jarayonida, sud ishlarida, qonuniylik va qonun to'g'risida axborot olinadi. Shunday axborot asosida huquqiy madaniyat darajasi yuksaladi, insonning huquqiy bilimi rivojlanadi va teranlashadi. Huquqiy mafkura - shaxsning huquqiy ongini ilmiy asosda shakllantira borib, huquqqa, insonning unga bo'lgan munosabatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy ruhiyat - ong doirasidagi huquqiy hodisalar bilan bog'liq holda, ongda yuzaga keladigan va unga singib ketgan his-tuyg'u, kechinmalar sohasini ifodalaydi.

Huquqiy ruhiyat - huquqiy hodisalarni hissiyot bilan tiklash sohasidir. Inson hissiz, o'ylamay o'z-o'zidan fikr yuritadigan mashina emas, balki u fikr yuritish bilan birga sezadigan tirik zotdir. Shuning uchun, inson ijtimoiy hodisalar va shu jumladan huquqiy hodisalarni ham nafaqat aql, balki sezgi bilan ham anglab yetadi. Huquqiy hodisalarni tushunib yetish jarayoni insonning ishtirokisiz

rivojlana olmaydi, shu sababli unda tabiiy tarzda g'oyaviy va hissiy jarayonlar qo'shilib ketadi. Inson o'zining ruhiy holatiga ko'ra huquqni mensimaslik, noqonuniylik, zulm va inson erkini kamsitish bilan bog'liq salbiy huquqiy voqeliklarga befarq, loqayd qaray olmaydi. Uning huquqiy kechinmalari va kayfiyati qahr-g'azab va norozilik ko'rinishlarida namoyon bo'lib, ijtimoiy-huquqiy hayotning salbiy hodisalariga tanqidiy qarash uchun ruhiy asosni vujudga keltirib, insonparvarlik g'oyalari negizida insonda qayta yaratish, bunyodkorlikka intilish hissini keltirib chiqaradi.

Huquqiy ong sohasida kechadigan fikrlash jarayoni odamlar talabi va manfaatini ifoda etuvchi inson hissiyoti bilan yo'g'rilgan yoki shu hissiyotdan tuzilgan. Huquqiy ong sohasida vujudga keladigan huquqiy g'oyalar, tushunchalar va taassurotlar, aql va sezgining shunday noaniq chalkashib ketishi oqibatida, inson fe'l-atvorini tartibga solishda katta ta'sirchan kuchga ega bo'ladi. Shuning uchun, huquqiy ongni o'rganishga katta ahamiyat beriladi.

Huquqiy ong murakkab ijtimoiy hodisadir. Sub'ektlar nuqtai nazaridan huquqiy ong, odatda, individual, guruhiiy va jamoaviy (ommaviy) ongga bo'linadi. Shu o'rinda huquqiy ongning individual va ijtimoiy shakllari keng tarqalganligini alohida ta'kidlash lozim. Individual huquqiy ong – bu har bir shaxs, alohida insonga xos huquqiy bilimlar, baholar, hissiyotlar va tuyg'ular majmui hisoblanadi. Individual huquqiy ong doimo noyob va betakrordir. Individual huquqiy ong fuqarolar tomonidan yuridik ahamiyatga molik xatti-harakatlar sodir etilganda, huquq va erkinliklar amalga oshirilganda, qonuniy manfaatlar himoya qilinganda, turli ko'rinishdagi huquqiy hujjatlar tayyorlashida yaqqol namoyon bo'ladi. Ijtimoiy huquqiy ong – bu jamiyat yoki uning alohida ijtimoiy tabaqalari, sinflari tomonidan ilgari suriladigan huquqiy tasavvurlar, tamoyillar, tushunchalar, nazariyalar, hissiyotlar yig'indisidir. Hozirgi jamiyatning asosiy huquqiy tamoyillari sirasiga mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, iqtisodiy siyosiy, adabiy, ilmiy va boshqa ijodiy faoliyatning teng huquqliligi, insonparvarligi, erkinligi, qonun ustuvorligini tan olish kabilarni kiritish mumkin.

Huquqiy madaniyat xaqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'zining deyarli barcha ma'ruzalarida to'xtalib, xuquqiy madaniyatning ahamiyatiga, uni yuksaltirish masalalariga e'tibor qaratadi. Masalan, 2016 yil 7-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan ma'ruzasida shunday dedi: "Qonun ustuvorligini ta'minlashda xuquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga xurmat ruxida tarbiyalash muxim ahamiyat kasb etadi". Xuquqiy madaniyat deganda, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan axolining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning xuquq normalariga rioya qilishi va ularni

bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi. Xuquqiy madaniyat – xuquqiy davlatning ajralmas qismidir. Xuquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs xuquqiy madaniyatiga bo'linadi. Jamiyatning xuquqiy madaniyati xuquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va xuquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan xamda inson xuquq soxasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko'riladi. Jamiyatning xuquqiy madaniyati shaxs erkinligi va xavfsizligi, inson xuquqlarini ta'minlash, uning xuquqiy ximoya etilishi va ijtimoiy faolligini kafolatlash uchun zamin bo'lib xisoblanadi. Shaxsning xuquqiy madaniyati jamiyat xuquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Bu faoliyat xuquq soxasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatia mos keladi, natijada shaxs va jamiyatning doimiy xuquqiy boyishi sodir bo'ladi. Shubxasiz, shaxsning yuksak xuquqiy madaniyati jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydi.

Shunday qilib, shaxs va jamiyatning xuquqiy madaniyati umuminsoniy qadriyatlar tushunchalari va insoniyat umumdemokratik yutuqlarining muxim natijasi xisoblanadi. Xuquqiy madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagi elementlardan tashkil topadi:

birinchidan, yuridik normalar tizimi bo'lmish xuquq;

ikkinchidan, xuquqiy munosabatlar, ya'ni qonun bilan tartibga solingan ijtimoiy munosabatlar tizimi;

uchinchidan, xuquqni muxofaza qilish va ta'minlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi davlat va jamiyat institutlari tizimi bo'lmish yuridik muassasalar;

to'rtinchidan, xuquqiy ong ya'ni xuquqiy voqelikni ma'naviy jixatdan aks ettiruvchi tizim;

beshinchidan, xuquqiy xatti- xarakat.

Xuquqiy madaniyatning taraqqiyoti shaxs xuquqlari va erkinliklari xajmining kengayishi, ularning ximoyalanganlik darajasining kuchaytirilishidir. Xuquqiy taraqqiyot markazida shaxs, uning xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari xamda madaniyatida uning oliy qadriyatining, ya'ni barcha narsalarning mezoni bo'lgan insonning maqomini mustaxkamlashga qaratilgan barcha xuquqiy vositalar, mexanizmlar va institutlar turadi. Xuquqiy davlatni shakllantirish vazifasini yuksak xuquqiy madaniyatsiz amalga oshirib bo'lmaydi. O'zbekistonda demokratik xuquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning xuquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi. Ularga muvofiq ravishda qonunga itoatkor hayot tarzi shakllanadi hamda mamlakatda huquq-tartibot rejimini o'rnatuvchi ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish amalga oshiriladi. Shuning uchun xuquqiy davlatning muxim belgisi – xuquqiy madaniyatdir.

Adliya organlari bilan bir qatorda boshqa davlat organlari va muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari xam profilaktika inspektorlariga o'z vakolatlari doirasida o'quv-metodik, axborot, maslahat va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Ichki ishlar organlari va Adliya organlari o'rtasida axborot almashish jarayoni yozma so'rovlar asosida amalga oshiriladi. So'rovga, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, u olingan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirilmay javob berilishi lozim.

Profilaktika inspektorlari Adliya organlari bilan xuquqiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni o'tkazishda, fuqarolarning xuquqiy masalalarini hal etishda, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, noqonuniy diniy xamda boshqa tashkilotlar faoliyatiga chek qo'yish choralari ko'rishda, fuqarolarning konstitutsiyaviy xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish xamda bular bo'yicha fuqarolarning xuquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini oshirishda hamkorlik qiladilar.

Binobarin, yuksak xuquqiy madaniyat-demokratik jamiyat poydevori xamda xuquqiy tizim yetukligining ifodasidir. U jamiyatdagi turli xayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqarolarning, barcha ijtimoiy guruxlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi xamda batartibligini ta'minlovchi va mustaxkamlovchi omildir. Qonunni xurmat qilish xuquqiy jamiyatning, siyosiy va xuquqiy tizimlar samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/8440>.

2. O'zbekiston Respublikasining 2024 yil 14 noyabrdagi "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-996-son qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 21 dekabrdagi «Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida» PF-209-son Farmoni.

4. Таштемиров А. А. Ахборот технологиялари орқали содир этиладиган жиноятларни фош этишнинг ҳуқуқий ва ташкилий жиҳатлари //World of Science. – 2023. – Т. 6. – №. 6. – С. 169-175.

5. Таштемиров А., Курчибоев Ж. Вояга етмаганлар ҳуқуқбузарлигининг профилактикасида таълим ва тарбиянинг ўрни ва аҳамияти //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 12. – С. 130-135.
6. Таштемиров А. А., Калауов С. А. Йўл ҳаракати хавфсизлиги ривожланиш концепциясининг истикболлари ва киберхавфсизлигини таъминлаш зарурати //barqarorlik va etakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 8. – С. 245-250.
7. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий тармоқлар орқали содир этилаётган жиноятларга қарши курашиш чора-тадбирлари //Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2023. – Т. 2. – №. 21. – С. 24-31.
8. Таштемиров А. А. и др. Ижтимоий профилактика объекти сифатида алкоголизм таъсиридаги шахслар билан ишлаш фаолиятини такомиллаштириш //So 'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 12. – С. 552-558.
9. Tashtemirov A., Po'latov A. Ayollar jinoyatchiligining oldini olish chora-tadbirlari //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 75-78.
10. Таштемиров А., Нурматов Н. Айрим хорижий давлатларнинг тезкор қидирув фаолиятида соҳавий ҳамкорликнинг таҳлили //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 190-197.
11. Таштемиров А. А. и др. Зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тушунчаси ва ўзига хослиги //Innovative achievements in science 2024. – 2025. – Т. 4. – №. 37. – С. 82-90.